



TA'LIMNING ZAMONAVIY TRANSFORMATSIYASI

KONFERENSIYA TO'PLAMI



**LINGVISTIKADA FONETIK BIRLIKLAR VA ULARNING TILDAGI
VAZIFALARI**

Islomov Dilshod Shomurodovich

Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc)

d.s.islomov@buxdu.uz

<https://orcid.org/0000-0001-8793-8031>

<https://buxdu.academia.edu/DilshodIslomov/>

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada fonetik birliklar va ularning tildagi vazifalari haqida olimlarning nazariy fikrlari keltirilgan hamda misollarni tahlil qilish jarayonida ularning ahamiyati va vazifalari ko'rsatib o'tildi. Fonetik birliklarning "fonostilistik vositalar" deb atalishiga oid fikrlar dalillandi.*

Kalit so'zlar: *tovush, bo'g'in, fonema, fonetik birliklar, fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional, fonologiya, nutq tovushlari, urg'u, ohang, melodika, pauza.*

Ma'lumki, "fonetika (grekcha "fone" – tovush so'zidan olingan) tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, tildagi tovushlarni o'rganuvchi sohadir. Fonetika biror tildagi nutq tovushlari-ni, unli va undoshlarni, ularning paydo bo'lishi, rivojlanish qonuniyatlarini, umuman, inson tovushlarini (antropofonetikani) o'rganadi.

Fonologiya (fono... va...logiya) – tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy (tuzilmaviy) va funksional (vazifaviy) qonuniyatlarini, tilning eng mayda, ma'no bildirmaydigan birliklari –bo'g'inlar, fonemalarning tuzilishi va amalda qo'llanishini o'rganuvchi bo'limi"¹.

"Fonologiya-ning fonetikadan farqi shundaki, uning e'tibor markazida fizik hodisa sifatidagi tovushlarning o'zini emas, balki ularning nutqda yanada murakkabroq ma'noli birliklar – morfemalar, so'zlarning tarkibiy qismi sifatida bajaradigan

¹ Зиндер Л.Р. *Общая фонетика*. - М: Высшая школа. 1979.-С.128.
www.tadqiqotlar.uz

vazifasini o'rganish turadi"². Shu tufayli fonologiyani ba'zan funksional fonetika deb ham nomlashlarini kuzatish mumkin.

Fonetikaning maqsadi fonetik birliklarning fizik-akustik, anatomik-fiziologik va lingvistik-funksional asoslarini o'rganish, ularning til mexanizmidagi rolini aniqlashdan iborat. Tilshunoslikda esa fonetikaning maqsadi fonetik birliklarning asosan lingvistik-funksional asoslarini o'rganishdan iborat. Bunday maqsad uning quyidagi vazifalarini belgilaydi:

a) tovush, urg'u, melodika kabi birliklarning yuzaga kelish qonuniyatlarini o'rganish; b) talabalarni yuqoridagi qonuniyatlar va shu qonuniyatlarga oid ilmiynazariy fikrlar bilan tanishtirish; v) adabiy tilning fonetik-fonologik tizimiga oid munozarali masalalarni aniqlash, ularga munosabat bildirish; g) talabalarda fonetik tahlil ko'nikmalarini shakllantirish; d) talabalarga shu sohada ishlagan fonetistfonologlar haqida qisqacha ma'lumot berish³.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, dunyo tilshunosligida fonetik birliklar asosan ikki guruhga—**segment** va **supersegment** birliklarga bo'linadi: **a) segment** birliklarga nutq tovushlari va bo'g'in kiradi. Bunday birliklar so'z yoki morfemalar tarkibida birin-ketin keladi, yotiq (gorizontal) yo'nalishda bir-biriga ulanib, zanjirsimon tarzda joylashadi. Masalan: *fonetika* so'zidagi 8 ta tovush (f,o,n,e,t,i,k,a) va to'rtta bo'g'in (*fo-ne-ti-ka*) segment birliklar, demak, shu so'z tarkibidagi qismlar sanaladi; **b) supersegment** birliklarga esa urg'u, ohang, melodika, pauzalar kiradi. Bunday birliklar so'zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit aloqador bo'lib, ularni so'z, gap yoki nutqdan ajratilgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ularni ustama hodisa (M.Mirtojiev) deb nomlash hollari ham uchraydi.

Fonostilistika bevosita fonetika va stilistikaning kesishuvi natijasida paydo bo'lgan yangi zamonaviy bo'limdir. Mazkur bo'limda fonetik qoidalar turli uslublarda o'rganiladi. Mazkur bo'limda fonetik birliklarni fonostilistik vositalar deb ham atash mumkin. Fonetik birliklar insonlar o'rtasidagi muloqot (diskurs)ning bo'yoqdorligini, ekspressiv-emotsional xususiyatlarini ko'rsatib berishda asosiy vositalar sifatida

² Зиндер Л.Р. *Общая фонетика*. - М: Высшая школа. 1979.-С.129.

³ H.A.Jamolxonov. *Hozirgi o'zbek adabiy tili 1 qism*. Toshkent-2004. B-16.

xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, fonetik birliklarni "fonostilistik vositalar" deb ham atash mumkin. Mazkur birliklar insonlar o'rtasidagi muloqot (diskurs)ning bo'yoqdorligini, ekspressiv-emotsional xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, talaffuzni to'g'ri, tushunarli bo'lishid hamda tinish belgilarni gapdagi o'rinlarini va vazifalarini ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. H.A.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili 1 qism. Toshkent-2004. B-16-22.
2. Islomov D. S. The articulation of sounds in french. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10 (10) [Электронный ресурс].
3. Shomurodovich I. D. THE EMERGENCE OF PSYCHOLINGUISTICS, THE SCIENTISTS'SCIENTIFIC-THEORETICAL VIEWS AND ITS CONNECTION WITH OTHER SCIENCES //JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 213-218.
4. Islomov, Dilshod. "HIS-TUYG'UNING PAYDO BO'LISHI, UNING ASOSIY HOLATLARI PSIXOLOG OLIM KERROLL ELLIS IZARD TALQINIDA." *Farg'ona davlat universiteti* 2 (2024): 96-96.
5. Islomov, Dilshod. "TILSHUNOSLIKDA FONOPSIXOLOGIYA ATAMASINING KIRIB KELISHI." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)* 47.47 (2024).
6. Islomov, D. Sh. "The Definition of The Concepts of «Phoneme» and «Phonostylistics». Middle European Scientific Bulletin, 9." 2021,
7. Shomurodovich, Islomov Dilshod. "À PROPOS DU TERME PHONOPSYCHOLOGIE." *Conferencea* (2023): 45-47.
8. Shomurodovich I. D. LE ROLE DE L'EMOTION EN PHONOPSYCHOLOGIE //Conferencea. – 2023. – C. 77-79.
9. Islomov, D. Sh. "SIMILARITY ASPECTS OF UZBEK AND FRENCH PHONETICS." *International Multidisciplinary Journal for Research & Development* 10.10 (2023).

10. Islomov, Dilshod. "Ўзбек тилига махсус фонетик ва фоностилистик эффект берувчи аллитерация тушунчаси ва санъати ҳақида." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 16.16 (2022).
11. Islomov, Dilshod. "ФОНЕМА ВА ФОНОСТИЛИСТИКА ФОНЕМА ВА ФОНОСТИЛИСТИКА ТУШУНЧАЛАРИГА ДОИР ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ КАРАШЛАР." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).
12. Islomov, D. Sh. "The articulation of sounds in french." *International Multidisciplinary Journal for Research & Development* 10.10 (2023).
13. Islomov, D. Sh. "Stilistika tushunshasi to'g'risida nazariy qarashlar va tahlillar (o'zbek va fransuz tillari misolida)." *Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi* (2022).
14. Islomov, D. Sh. "Fransuz tili fonetikasining o'ziga xos jihatlari." *Urganch Davlat Universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali* 12 (2021).
15. Islomov, D. Sh. "Fonema va fonostilistika tushunchalariga doir ilmiy-nazariy qarashlar." *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali* 1.2 (2021): 1.
16. Shomurodovich, Islomov Dilshod, and Allayarova Umida Baxadirovna. "MORFOLOGIYA BO'LIMIDA OT SO'Z TURKUMINING O'RNI VA AHAMIYATI (FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)." *Gospodarka i Innowacje*. 54 (2024): 46-50.
17. Islomov, Dilshod. "TOVUSHLAR O'ZBEK TILIDA TOVUSHLAR ARTIKULYATSIYASI." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
18. Shomurodovich, Islomov Dilshod. "La phonostylistique est étudié par le linguiste russe NS Trubetskoy." *Gospodarka i Innowacje*. 42 (2023): 715-721.
19. Islomov, Dilshod. "LE TERME PHONOLOGIE, PHONOSTYLISTIQUE SELON NS TRUBETSKOY." *Models and methods in modern science* 2.14 (2023): 19-22.
20. Исломов, Д. Ш. "Француз тилида ижро этишга хос бўлган фоностилистик воситаларнинг лексик-семантик хусусиятлари." " *CANADA*" *INTERNATIONAL*

CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES. Vol. 9. No. 1. 2023.

21. Islomov, Dilshod. "ABDULLA QODIRIYNING HAYOTI VA UNING O'ZBEK ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 6.2 (2020).